

SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT CHARACTERISTICS OF FREE ECONOMIC ZONES WITH CHINESE PARTICIPATION IN UZBEKISTAN

Manzurakhon J. Mahmudova
Professor, Namangan State University

Mahbuba T. Mamadaliyeva
Master's degree, Namangan State University

***Annotation.** China is one of Uzbekistan's key partners in the Asian region. In collaboration with China and several developed countries, free economic zones have been established across the country, where various sectors are rapidly expanding and their efficiency is steadily increasing. The core activities of these zones are primarily linked to the industrial sector, attracting substantial investment flows and making a significant contribution to economic growth.*

***Keywords:** Economic zones, foreign investment, industry, pharmaceuticals, agriculture, free economic zones (FEZ), tourism, information and communication technologies (ICT), infrastructure.*

O'ZBEKISTONDA XITOIY ISHTIROKIDAGI ERKIN IQTISODIY ZONALARNING IQTISODIY-IJTIMOIIY RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Mahmudova Manzuraxon Jo'rayeva
Namangan davlat universiteti professori

Mamadaliyeva Mahbuba Turg'unpolot qizi
Namangan davlat universiteti magistranti

***Annotatsiya.** Xitoy O'zbekistonning Osiyo mintaqasidagi eng muhim hamkorlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz hududlarida Xitoy hamda boshqa rivojlangan davlatlar ishtirokida tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalarda turli tarmoqlar jadal rivojlanib, ularning samaradorligi muntazam yuksalmoqda. Mazkur zonalarning asosiy faoliyati sanoat sohasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular yirik hajmdagi investitsiyalarni jalb etish orqali iqtisodiy o'sishga sezilarli hissa qo'shmoqda.*

***Kalit so'zlar:** Iqtisodiy zonalar, xorijiy investitsiyalar, sanoat, farmatsevtika, qishloq xo'jaligi, erkin iqtisodiy zonalar (EIZ), turizm, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), infratuzilma.*

Kirish. O'zbekiston Respublikasi bugungi kunda dunyoning turli mamlakatlari bilan ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarini jadal rivojlantirib bormoqda. Xitoy O'zbekistonning yetakchi savdo sheriklaridan biri hamda mamlakat iqtisodiyotiga yirik sarmoyador hisoblanadi. O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamda sarmoyaviy hamkorlik jadal rivojlanib, yangi yo'nalishlarni qamrab olmoqda.

Bugungi kunda Xitoy O‘zbekistonning Osiyo mintaqasidagi eng muhim hamkorlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlar deyarli barcha sohalarda — siyosiy, savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, xavfsizlik, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-madaniy, fan va ta’lim, sport, gumanitar, energetika, neft-gaz, transport, kommunikatsiya va axborot sohaslarida o‘zaro hamkorlik jadal suratlarda rivojlanib, samaradorligi ortib bormoqda. Shuningdek, mamlakatlarimiz mazkur sohalarda hamkorlikda erkin iqtisodiy hududlarda manfaatli loyihalarni amalga oshirib, sezilarli natijalarga erishmoqda.


Erkin iqtisodiy zonalar davlatlar iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish va ishlab chiqarishni texnik hamda texnologik yangilash vositasi sifatida xalqaro xo‘jalik munosabatlarida bir necha o‘n yillar davomida faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Ushbu iqtisodiy tuzilmalar tashqi savdoni rivojlantirish, iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, xorijiy davlatlarning biznes va korporativ boshqaruv sohasidagi ilg‘or tajribalarini o‘zlashtirish, hududlar infratuzilmasini rivojlantirish va qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratish vositasidir.

Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini huquqiy tartibga solish, mazkur iqtisodiy hududlar ishtirokchilari uchun qulay tadbirkorlik va investitsiya muhitini yaratish dolzarb vazifadir. Erkin iqtisodiy hududlar mamlakatning boshqa qismlarida qo‘llanilmaydigan imtiyoz va rag‘batlantirish tizimi amal qiladigan milliy iqtisodiy hududning bir qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

Asosiy qism. Erkin iqtisodiy zonalar noan’anaviy tarmoqlarni rivojlantirish, milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadida tashkil etilgan, mamlakatning maxsus iqtisodiy imtiyozlar joriy etilgan alohida hududi hisoblanadi. U milliy iqtisodiy makonning bir qismi bo‘lib, bu hududda mamlakatning boshqa qismlarida qo‘llanilmaydigan ma’lum imtiyozlar tizimi amal qiladi va davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi kamayadi.

Erkin iqtisodiy zonalar xo‘jalik yuritishning yangi shakllaridan biri bo‘lib, xalqaro maydonda dastlab sanoat ishlab chiqarishi rivojlangan mamlakatlar —

AQSh, Yaponiya, Germaniya va Buyuk Britaniyada, keyinchalik esa Polsha, Vengriya, Bolgariya kabi davlatlarda tashkil etilgan. Jahon tajribasidan ma'lumki, erkin iqtisodiy hududlar dastlab daryo va dengiz portlarida, xalqaro aeroportlarda, temir va avtomobil yo'llariga yaqin joylarda, sayyohlik maskanlarida hamda alohida sanoat markazlarida tashkil etilgan bo'lib, ularning asosiy turlari 1-rasmda ifodalangan.




1-rasm. Erkin iqtisodiy zonalar asosiy turlari

O'zbekiston Respublikasining "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonuniga asosan, erkin iqtisodiy zonalar — "mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat investitsiyasi, istiqbolli texnologiyalar va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma'muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti mavjud maxsus ajratilgan hududlar" sifatida ta'riflangan.

2020-yilda O'zbekistonda 18 ta erkin iqtisodiy zona (EIZ) faoliyat yuritgan bo'lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga ularning soni 22 taga yetdi. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, hozirda mamlakatda 25 ta EIZ faoliyat yuritmoqda (2-rasm). Ulardan 18 tasi sanoat zonalar, 6 tasi

farmatsevtika yoʻnalishidagi zonalar, 1 tasi esa qishloq xoʻjaligiga ixtisoslashgan zonadir.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan EIZlarda Buyuk Britaniya, Xitoy, Koreya Respublikasi, Italiya, Hindiston singari qator mamlakatlar bilan hamkorlikda investitsiya loyihalari amalga oshirib kelinmoqda.



2-rasm. Oʻzbekiston erkin iqtisodiy zonolari

Bu borada Xitoy sarmoyalarining oʻrni katta. Xitoy Oʻzbekiston iqtisodiyotiga eng koʻp investitsiya kiritayotgan davlatlardan biridir. Respublikamizda Xitoy ishtirokidagi 1702 ta korxonalar faoliyat yuritmoqda. Ularning 116 tasi 100 foiz Xitoy sarmoyasi asosida tashkil etilgan. Mamlakatimizda Xitoyning 73 ta kompaniyasi vakolatxonalarini ham faoliyat olib bormoqda.

Taʼlim sohasida ham hamkorlik jadal rivojlanmoqda. Shu aloqalar doirasida talabalar va amaliyotchilar almashinuvi keng yoʻlga qoʻyilgan. Oʻzbekiston–Xitoy hamkorligining bu darajada jadal kengayishi iqtisodiy rivojlanishda katta ahamiyat kasb etmoqda.

2017–2024-yillarda Xitoyning O‘zbekiston iqtisodiyotiga kiritgan sarmoyalari umumiy hajmi 14 milliard dollarni tashkil etdi. Jizzax EIZ viloyat sanoatini rivojlantirishda muhim o‘rin tutmoqda. Ushbu hududda soliq va bojxona to‘lovlari uchun belgilangan imtiyozlar, shuningdek, xomashyo va butlovchi qismlar bojxona to‘lovlaridan ozod etilishi Jizzax erkin iqtisodiy zonasida sanoat ishlab chiqarishini yanada rivojlantirishda muhim omil bo‘lmoqda. “Jizzax” EIZ tashkil etilishi natijasida qisqa muddatda 19 ta zamonaviy korxonalar ishga tushirildi. Iqtisodiy hududning Jizzax shahridagi 363,7 gektar maydonda 14 ta, Sirdaryo viloyatidagi 150 gektar maydonda esa 5 ta loyiha amalga oshirilishi uchun 91,3 million dollar miqdorida investitsiya sarflandi. Zamonaviy texnologiyalar asosida barpo etilgan korxonalarda mingdan ortiq yangi ish o‘rni yaratildi. Doimiy ish o‘rinlariga ega bo‘lganlarning 60 foizini kasb-hunar kollejlari bitirgan yosh mutaxassislar tashkil qiladi.

Toshkent viloyatidagi ishlab chiqarish hamda resurs salohiyatidan foydalanish, Farg‘ona vodiysidagi korxonalar bilan barqaror iqtisodiy aloqalarni yo‘lga qo‘yishning kelajakda muhim ahamiyatga ega ekanini hisobga olgan holda, 2012-yilda “Angren maxsus industrial zonasi”ni tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilingan edi. “Angren” EIZ, eng avvalo, o‘z vaqtida sanoat shaharlari sifatida tashkil qilingan hududlarda iqtisodiy salohiyatni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

“Jizzax” EIZ tashkil etilishi natijasida qisqa muddatda 19 ta zamonaviy korxonalar ishga tushirildi. Iqtisodiy hududning Jizzax shahridagi 363,7 gektar maydonda 14 ta, Sirdaryo viloyatidagi 150 gektar maydonda esa 5 ta loyiha amalga oshirilishi uchun 91,3 million dollar miqdorida investitsiya sarflandi. Zamonaviy texnologiyalar asosida barpo etilgan korxonalarda mingdan ortiq yangi ish o‘rni yaratildi. Doimiy ish o‘rinlariga ega bo‘lganlarning 60 foizini kasb-hunar kollejlari bitirgan yosh mutaxassislar tashkil qiladi.

Shuningdek, Toshkent viloyatidagi ishlab chiqarish hamda resurs salohiyatidan foydalanish, Farg‘ona vodiysidagi korxonalar bilan barqaror

iqtisodiy aloqalarni yoʻlga qoʻyishning kelajakda muhim ahamiyatga ega ekanini hisobga olgan holda, 2012-yilda “Angren maxsus industrial zonasi”ni tashkil etish toʻgʻrisida qaror qabul qilingan edi. “Angren” EIZ, eng avvalo, oʻz vaqtida sanoat shaharlari sifatida tashkil qilingan hududlarda iqtisodiy salohiyatni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Bu salohiyat oʻz davrida bir yoqlama, markazga yoʻnaltirilgan ishlab chiqarishga asoslanib qolgan Angren va Ohangaron shaharlarining bugungi kunda isloh etilayotgan sanoat tizimini yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Bu esa, oʻz navbatida, zamonaviy texnologiyalar asosida qoʻshimcha ish oʻrinlari yaratilishini taʼminlaydi. Shu orqali mazkur maxsus iqtisodiy zona Toshkent viloyatidagi ikkita yirik hudud — Angren va Ohangaron shaharlari hamda ularning atrofidagi mahalliy punktlarda istiqomat qilayotgan aholi farovonligini oshirishga ham munosib ulush qoʻshmoqda.

Oʻzbekistonni Qirgʻiziston orqali Xitoy bilan bogʻlovchi boʻljak avtomagistralning Angren shahridan oʻtishi, qolaversa, ushbu shahar mamlakat poytaxtini Fargʻona vodiysi bilan bogʻlovchi asosiy nuqtalardan biri ekanligini inobatga olsak, “Angren” EIZ ham milliy, ham mintaqaviy, ham xalqaro miqyosda ahamiyatga egadir. Yuqorida keltirilgan EIZlar Oʻzbekistonda ilk tashkil etilgan iqtisodiy zonalar boʻlib, ularni tashkil etishda asosiy hamkor Xitoy davlati hisoblanadi va u yirik sarmoyalar kiritgan. Oʻzbekistonda Navoiy, Angren va Jizzaxda maxsus iqtisodiy zonalar (EIZ) mavjud boʻlib, ular Xitoy xususiy investorlarining Oʻzbekiston hukumati bilan hamkorlikda barpo etilishi natijasidir. Xitoyning bir qancha kompaniyalari Jizzax va Angren zonalarida togʻ-kon uskunalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (telekom, uyali telefonlar), qurilish materiallari (shisha, keramik plitkalar, tezyurar liftlar) hamda yengil sanoat (sunʼiy charm, poyabzal, uy hayvonlari uchun oziq-ovqat, toʻqimachilik) ishlab chiqarishga sarmoya kiritgan.

Hozirgi kunda mamlakatimizda EIZlar tez suratlarda rivojlanib, iqtisodiy samaradorlikni oshirmoqda. Jumladan, faoliyat yuritayotgan 25 ta EIZning 19 tasi Oʻzbekiston–Xitoy hamkorligida tashkil etilgan. Ushbu EIZlarning asosiy faoliyat

yoʻnalishi koʻproq sanoat tarmogʻi bilan bogʻliq ekanini kuzatish mumkin (1-jadval). Chunki sanoat sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalarining aksariyat qismi katta miqdordagi investitsiyalarni jalb qiladi va iqtisodiy oʻsishga katta hissa qoʻshadi. Sanoat tarmogʻida faoliyat yuritayotgan korxonalar koʻp ishchi kuchiga ehtiyoj sezadi, bu esa EIZ joylashgan hudud aholisi uchun koʻplab ish oʻrinlarini yaratadi. Sanoat mahsulotlarini eksport qilish qulay boʻlib, EIZlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni tez va oson eksport qilish uchun infratuzilma yaratilgan. Shuningdek, 2017-yilda farmatsevtika sohasida faoliyat olib boradigan EIZlar Jizzax, Namangan, Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Qoraqalpogʻiston Respublikasi, Andijon va Surxondaryo viloyatlarida tashkil etilgan boʻlib, ular dorivor oʻsimliklardan turli infuzion eritmalar, antibiotiklar kabi mahsulotlarni ishlab chiqaradi. Asosiy investitsiya kiritgan hamkorlar Xitoy, Hindiston, Rossiya, Eron va Qirgʻiziston hisoblanadi.

1-jadval

Oʻzbekistondagi tashkil etilgan EIZ larni faoliyati

№	Erkin iqtisodiy zona nomi	Joylashgan hududi	Tashkil etilgan yili	Asosiy mahsuloti	Asosiy hamkor davlati	Tarmoq faoliyati
1	Navoiy EIZ	Navoiy	2008	Kimyo sanoati, qurilish materiallari, elektronika	Xitoy-Germanya	sanoat
2	Angren EIZ	Toshkent	2012	Elektronika, kimyo sanoati Mashinasozlik	Xitoy-Rossiya	sanoat
3	Jizzah EIZ	Jizzax	2013	Qurilish materiallari, maishiy texnika, elektr uskunalar	Xitoy-Janubi Koreya	sanoat
4	Samarqand EIZ	Samarqand	2017	Mahalliy xomashyodan qurilish materiallari, plastmassa	Turkiya-Hindiston	sanoat
5	Gʻijduvon EIZ	Buxoro	2017	Yengil sanoat, oziq-ovqat mahsulotlari, keramika	Xitoy-Eron	sanoat
6	Qoʻqon EIZ	Fargʻona	2017	Elektrotexnika, maishiy texnika, qadoqlash	Xitoy-Koreya	sanoat
7	Xazorasp EIZ	Xorazm	2017	Qishloq xojaligi texnikasi, qadoqlash, oziq-ovqat, plastmassa	Turkiya-Qozogʻiston	sanoat
8	Nukus EIZ	Qoraqalpogʻiston Respublikasi	2019	Oziq-ovqat, qishloq xoʻjaligi texnikasi	Rossiya-Xitoy	sanoat
9	Sirdaryo EIZ	Sirdaryo	2018	Qurilish materiallari, qadoqlash, plastmassa	Xitoy-Rossiya, Turkiya	sanoat

10	Chirchiq EIZ	Toshkent	2020	Kimyo sanoati, elektrotexnika, suv filtrlash	Xitoy, Belarus, Germaniya	sanoat
11	Namangan EIZ	Namangan	2018	Yengil sanoat, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qadoqlash	Turkiya, Xitoy	sanoat
12	Termiz EIZ	Surxondaryo	2018	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari muzlatilgan, qadoqlash, oziq-ovqat	Xitoy, Afg'oniston	sanoat
13	Zomin farm	Jizzax	2017	Farmasevtika, dorivor o'simliklar	Xitoy-Hindiston	farmasevtika
14	Namangan farm	Namangan	2017	Antibiyotiklar, kapsula farmasevtika mahsulotlari fitodori vositalari	Hindiston-Xitoy	farmasevtika
15	Bo'stonliq farm	Toshkent	2017	Ekstraktlar, choylar, siroblar, kosmetik biomahsulotlar	Xitoy-Rossiya	farmasevtika
16	Toshkent farm	Toshkent	2017	Dorivor o'simliklar, infuzion eritmalar, vaksinalar	Turkiya-Eron	farmasevtika
17	Nukus farm	Qoraqalpog'iston Respublikasi	2017	Mahaliy o'simlik asosida dorilar, balzam, spirt	Rossiya-Qirg'iziston	farmasevtika
18	Andijon farm	Andijon	2019	Farmasevtika dorilar, antibiotiklar, tibbiy mahsulotlar	Hindiston-Xitoy	farmasevtika
19	Bo'ysin farm	Surxondaryo	2017	Tabletka sirob vositalari, gigiyeva vositalari	Xitoy-Eron	farmasevtika
20	Baliq ishlab chiqaruvchi	Toshkent	2018	Baliqchilik, ozuqa ishlab chiqarish	Xitoy-Rossiya	baliqchilik
21	Chorvoq EIZ	Toshkent	2019	Turizm sohasi	BAA, Janubiy Koreya	turizm
22	Bo'sun EIZ	Surxondaryo	2022	Qurilish materiallari, tog'-kon sanoati	Eron-Xitoy	sanoat
23	Xiva-agro EIZ	Xorazm	2018	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, qadoqlash	Rossiya-Xitoy	qishloq xo'jaligi
24	Ipak yo'li EIZ	Andijon	2024	Mashinasozlik, metallurgiya, qurilish materiallari, elektrotexnika	Xitoy, Turkiya, Germaniya	sanoat
25	Chiroqchi EIZ	Qashqadaryo	2019	Agrar qayta ishlash, yuqori texnologiyali sanoat, eksport mahsulotlar	Turkiya	sanoat

Izoh: Jadval mualliflar tomonidan statistik ma'lumotlari asosida shakllantirildi

2018-yilda Toshkent viloyatida baliqchilik yo'nalishida EIZ tashkil etildi. Uning asosiy hamkorlari Xitoy va Rossiya bo'lib, mazkur hududda baliqchilik uchun ozuqa ishlab chiqariladi. Xorazm viloyatida esa 2018-yilda qishloq xo'jaligi tarmog'i bo'yicha EIZ tashkil etilgan bo'lib, uning asosiy hamkorlari Rossiya va

Xitoy hisoblanadi. 2019-yilda Toshkent viloyatida BAA va Janubiy Koreya hamkorligida turizm sohasida EIZ tashkil etildi. U Chorvoq hududida, tabiati va manzarasi go‘zal, turizmni rivojlantirish uchun qulay hududda joylashgan. Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik jadal rivojlanmoqda. 2023-yil yakunlari bo‘yicha O‘zbekistonning umumiy tashqi savdo aylanmasida Xitoyning ulushi 21,9 foizni tashkil etdi. Jami eksportning 10,1 foizi, importning esa 29,5 foizi Xitoy hissasiga to‘g‘ri kelgan. Yaqin istiqbolda bu ko‘rsatkichni 20 milliard dollarga yetkazish imkoniyatlari qayd etildi. Investitsiya loyihalarining joriy portfeli 50 milliard dollardan oshgan. 2023-yil boshidan buyon mamlakatimizda 3 milliard dollardan ziyod Xitoy sarmoyasi o‘zlashtirilib, 500 dan ortiq yangi qo‘shma korxonalar tashkil etildi. Bu O‘zbekiston–Xitoy iqtisodiy munosabatlarning izchil rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Xulosa. Erkin iqtisodiy zona – bu yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirish, zamonaviy, raqobatbardosh, import o‘rnini bosuvchi va eksportga yo‘naltirilgan tayyor sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishga faol jalb etish maqsadida tashkil etiladigan hududdir. Uni tashkil etishdan maqsad, eng avvalo, mamlakat yoki alohida hududning strategik rivojlanishiga oid vazifalarni hal qilish, tashqi savdo, umumiy iqtisodiy, ijtimoiy, hududiy va ilmiy-texnik masalalarni yechish, yuqori texnologiyalar sohasidagi loyihalarni hayotga tatbiq etish, hudud infratuzilmasini rivojlantirish va qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratishdan iboratdir. Shuningdek, erkin iqtisodiy zonalarining kengayishi O‘zbekistonning iqtisodiy o‘sishi va global raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Mamlakatimizdagi erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligi tahlili”ga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi ma’ruzasi (9.10.2017).
2. Kamalov M., Qurbonov M. Erkin iqtisodiy zonalar huquqi. – Toshkent, 2018. -179 b.

3. Soliyev A.S., Komilova N.K., Yanchuk S.L., Jumaxanov Sh.Z., Rajabov F.T. Iqtisodiy-ijtimoiy geografiya. – Toshkent: “Universitet”, 2019. – 366 b.
4. Vaxabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiyev Sh.H. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – Toshkent, 2015. – 576 b.
5. Tillayeva B.R. Xalqaro iqtisodiyot va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – Toshkent: “Universitet”, 2023. – 230 b.
6. Aminov X.B. O‘zbekiston Respublikasi Xitoy Xalq Respublikasi bilan siyosiy iqtisodiy va madaniy aloqalar. Akademik darajasini olish uchun yozilgan diss. – Urganch, 2017. – 81 b.
7. Xo‘jamqulov D.Y. Erkin Iqtisodiy Hududlar [Darslik]. – T.: Iqtisodiyot, 2019. – 408 b.
8. Махмудова М.Д., Усмонова Ю.А. (2023). Перспектива реформ в cotsиальном развитии рабочих мест. *Экономика и социум*, (3-1 (106)), 403-407.
9. Махмудова, М. Ж. (2022). Суть организaции современных интенсивных садов в наманганской области. *Экономика и социум*, (11-2 (102)), 495-499.
10. Махмудова М., Numonov N. Efficiency of economic relations of Uzbekistan and Turkey. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*. 25 February 2024.
11. Махмудова М., Mamadaliyeva M. China Hello Republic In the economy External Trade Relationships Development Efficiency. *American jurnal of advanced scientific research*. 5/9. volume-2, March 2025.

Internet saytlar:

12. Onlayn axborot sayti. URL: <https://dev-portal.miit.uz/en/why-uzbekistan/economic>
13. O‘zbekiston Milliy axborot agentligining rasmiy sayti. URL: <https://uza.uz/uz>
14. Onlayn axborot sayti. URL: <https://www.stat.uz/>